f_{pr} – prujinaning egilish. bunda $f_{pr} = f_{ct}$ (3-tablitsa, shifrning oxirgi raqami);

$G=8 \cdot 10^4 \text{MPa}$ – po‘latning siljish moduli

P'_{din} – prujinaga tushadigan dinamik zo‘riqish

Misol.

Berilgan: $D = 0,23\text{m}$; $P'_{din} = 5,2 \cdot 10^4 \text{N}$; $G = 8 \cdot 10^4 \text{MPa}$

$P_{ct} = 2,6 \cdot 10^4 \text{N}$; $f_{pr} = f_{ct} = 100\text{mm} = 0,1\text{m}$; $[\tau]_{max} = 700\text{MPa}$; $K = 1,3$

Yechish:

$$P'_{din} = 0,5P_{st} = 0,5 \cdot 5,2 \cdot 10^4 = 2,6 \cdot 10^4 \text{ N}$$

$$d = \sqrt[3]{\frac{8KP'_{din}D}{\pi[\tau]_{max}}} = \sqrt[3]{\frac{8 \cdot 1,3 \cdot 2,6 \cdot 10^4 \cdot 0,23}{3,14 \cdot 700 \cdot 10^6}} = \sqrt[3]{\frac{6,2192 \cdot 10^4}{2198 \cdot 10^6}} = 0,03\text{m} = 30\text{mm},$$

$$n_p = f_{pr} d^4 G / 8 D^3 P'_{din}$$

$$n_p = 0,1 \cdot 0,03^4 \cdot 8 \cdot 10^4 \cdot 10^6 / 8 \cdot 0,23^3 \cdot 2,6 \cdot 10^4 = 2,56 \approx 3$$

Tayanch o‘ramlar sonini 1,5 deb olgan holda umumiy o‘ramlar sonini topamiz - 4,5

Rezina amortizator mustahkamligining hisob-kitobi.

Ushbu topshiriqda talaba rezina amortizatorning mustahkamligini ta'minlaydigan, statik zo'riqishga chidamli bo'lgan rezinani tanlab olishi lozim. Osilib turgan resorning rezina amortizatori disk shaklida, aylana shaklida yoki to'g'ri burchak shaklida bo'lishi va resor hamda prujinalarga tayanch qilib o'rnatilishi lozim.

Rezina amortizatorlar siqilishining hisob kitobini chiqarish paytida statik zo'riqish davomidagi absolyut deformatsiya quyidagicha qabul qilinadi:

$$\Delta H = (0,1 \div 0,15)H,$$

Bunda, H – amortizatorning birlamchi balandligi.

ΔH ning katta qiymatlarida rezina tezda emirilib ketadi.

Rezina amortizatorning xarakteristikasi chiziqsimon $\varepsilon \leq 0,2$ atrofida deb qabul qilinadi va Guk qonunida ifodalanadi:

$$\sigma = \varepsilon E_p,$$

Bunda, σ - siqilish kuchlanishi,

E_p – rezina qayishqoqligining hisobiy moduli.

$\sigma = P/F$ va $\varepsilon = \Delta H/H$, bunda, F amortizator maydoni,

$$\Delta H = f_p = HP/E_p F.$$

Agar amortizator (disk, doira yoki to'g'ri burchakli) siqilganda deformatsiyaga uchrasa, unda uning qattiqligi rezinaning bo'rtib turgan erkin yuzasi va tayanch yuzaning holatiga bog'liq bo'ladi. Amortizator qayishqoqligining hisob – kitob moduli quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$E_p = E(1 + \alpha \Phi), \quad E = E_p / (1 + \alpha \Phi)$$

Bunda, E - rezina qayishqoqligining moduli.

α – koeffitsient, tayanch yuzalarni hisobga oluvchi koeffitsient. Rezina tayanch yuzasi metall prokladkalariga mustahkam qotirilganda $\alpha = 4,67$

Φ – tuzilish koeffitsienti, (bitta) amortizator tayanch yuzasi maydonining uning to'liq yon yuzasiga (bo'rtib chiqqan joyiga) munosabati.

Qayishqoqlik moduli E rezinaning surilish moduli G_p bilan $E = 3G_p$ tenglama ko'rinishida bog'langan.

Rezina xossasini bildiruvchi asosiy ko'rsatkich bu uning qattiqligi hisoblanadi. Qattiqlik sonidan h dan G_p ga o'tish quyidagi empirik formula yordamida amalga oshiriladi.

$$G_p = (h/19,5)^2 \quad h = 19,5 \sqrt{G_p}$$

Ushbu formulada G_p kg/sm² da ifodalanadi.

Doirasimon amortizatorning zo'riqish kuchlanishi va tuzilish koeffitsienti F quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sigma_{\text{сж}} = P'_{\text{сг}} / (\pi(D^2 - d^2) / 4)$$

Bunda, D va d amortizatorning tegishli ravishda tashqi va ichki diametrlari.

$$\Phi = \pi(D^2 - d^2) / 4\pi H(D + d) = (D - d) / 4H.$$


Shunday qilib amortizatorning o'lchamlari D, d, H (topshiriq variant bo'yicha) va kuchlanish P_{cr} yordamida siqish kuchlanishini, qayishqoqlik modulini, surilish modulini va keyin rezinaning amortizatorda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan deformatsiyasini ta'minlab beruvchi qattqlik darajasini aniqlash mumkin.

Keyin 10-jadval bo'yicha rezina markasi aniqlanadi E_r ning F ga bog'liqlik grafigidan foydalanib (5-rasm) rezina amortizator E_r ning qayishqoqlik moduli aniqlanadi.

10-jadval. Rezinaning fizik-mexanik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Rezina markasi					
	2959	3063*	8075	2959B	NO 681*	2462K2
Yirtilishga qarshilik MPa	16	9	12,3	14	9	11,6-15
Nisbiy cho'zilish, %	500	500	276	573	250	240-390
Qoldiq cho'zilish, %	32	20	7	18	12	6-14
Sinuvchanlik harorati °S	-55	-37	-42	-60	-55	-(49-51)
SHor bo'yicha qattqlik	45-60	45-60	73	56	55-70	70-80

Bunda, *- Moyga chidamli rezina
5-rasm. E_r ning F ga bog'likligi.



Masalan.

Berilgan: $D=0,23\text{m}$; $d=0,03\text{m}$

$\varepsilon=0,1$; $P_{CT} = 4 \cdot 10^4\text{N}$.

Yechish:

$$\sigma_{c\kappa} = P_{CT}/(\pi(D^2-d^2)/4) = 4 \cdot 10^4/3.14/4(0.23^2-0.08^2) = 1.095 \cdot 10^6\text{Па} = 1,095\text{МПа};$$

$$E_p = \sigma_{c\kappa}/\varepsilon = 1.095/0.1 = 10.95\text{МПа};$$

$$\Phi = (D-d)/4H = (0,23-0,08)/4 \cdot 0,03 = 1,25;$$

$$E = E_p/(1+\alpha\Phi) = 10.95/(1+4.67 \cdot 1.25) = 1.6\text{ МПа};$$

$$E = 3G_p$$

$$G_p = 1.6/3 = 0.535\text{МПа} = 5,35\text{ кг/см}^2;$$

$$h = 19,5 \sqrt{5,35} = 45.$$

rezinaning qattiqligiga qarab, rezina markasini tanlab olish mumkin.

3.2. Osilgan reszorlarning statik egiluvchanligi va qattiqligini aniqlash.

Telejka osilgan reszorining asosiy qayishqoqlik xarakteristikasi uning qattiqligidir. U 1 m.ga statik egilishni keltirib chiqadigan kN kuchlanish kattaligini ko'rsatadi.

Qayishqoq elementlarga kiruvchi prujina, qatlamli reszor va rezinali amortizatorlarning geometrik razmerlarini ularning mustahkamligi hisob-kitob qilingan 3.1 bo'limdan olish zarur.

Qayishqoq elementlarning qattiqligi quyidagi tenglamalar yordamida aniqlanadi;

Ressor taxlamlari uchun: Bunda $E=2,05 \cdot 10^5\text{ MPa}$

$$\mathcal{K}_P = \frac{Ebh^3(3n_K+2n_C)}{6(L/2-a/6)^3} \quad \text{kN/mm}$$

Rezinali amortizator uchun:

$$\mathcal{K}_{P.A.} = \frac{E_p \Phi}{H};$$

Silindrik prujina uchun:

$$\mathcal{K}_{\text{ПР}} = \frac{d^4 G}{8n_p D^3}$$

Ushbu tenglamalarga kiruvchi kattaliklarning tushuntirishi 4.1 qismda berilgan.

Rezinali amortizatorlar, reszor taxlamlari, prujinalar razmeri, reszorning osilish sxemalarini namunadagi teplovozdan olish mumkin.

Osilgan reszorlar qattiqligining yig'indisi yuk ortish usuliga va qayishqoq elementlarga bog'liq: parallel, navbatma-navbat va aralash.

Qayishqoq elementlar guruhining qattiqligi umumiy hollarda butun reszor tizimi cho'kishi uchun zarur bo'lgan ish hajmining hamda alohida elementlarning egilishi uchun sarf bo'ladigan ish hajmining bir-biriga barobarlashtirish asosida aniqlanadi.

Yuk ta'sirida bir necha qayishqoq elementlar masalan, prujina va reszorlarning tizimini siqishga sarf bo'lgan ish hajmi ushbu elementlar siqilishiga ketgan ish yig'indisiga teng.

$$\frac{P_{\text{ОБЩ}} f_{\text{ОБЩ}}}{2} = \frac{P_P f_P}{2} + \frac{P_{\text{ПП}} f_{\text{ПП}}}{2}$$

Almashtirish kiritamiz

$$f_{\text{ОБЩ}} = \frac{P_{\text{ОБЩ}}}{\mathcal{K}_{\text{ОБЩ}}}; f_P = \frac{P_P}{\mathcal{K}_P}; f_{\text{ПП}} = \frac{P_{\text{ПП}}}{\mathcal{K}_{\text{ПП}}}$$

Quyidagi kelib chiqadi

$$\frac{P_{\text{ОБЩ}}^2}{\mathcal{K}_{\text{ОБЩ}}} = \frac{P_P^2}{\mathcal{K}_P} + \frac{P_{\text{ПП}}^2}{\mathcal{K}_{\text{ПП}}}$$

Elementlarga navbatma-navbat yuk tushganda $P_{\text{obsh}}=P_r=P_{\text{pr}}$ bunda quyidagiga ega bo'lamiz

$$\frac{1}{\mathcal{K}_{\text{ОБЩ}}} = \frac{1}{\mathcal{K}_P} + \frac{1}{\mathcal{K}_{\text{ПП}}} \text{ или } \mathcal{K}_{\text{ОБЩ}} = \frac{\mathcal{K}_P \mathcal{K}_{\text{ПП}}}{\mathcal{K}_P + \mathcal{K}_{\text{ПП}}}$$

Talaba shuni esda tutishi lozimki, elementlarga navbatma-navbat yuk tushganda qattqlikga teskari bo'lgan egiluvchanlik deb ataluvchi kattalik jamlanadi.

Elementlarga parallel yuk tushganda:

$$P_{\text{ОБЩ}} = \mathcal{K}_{\text{ОБЩ}} f_{\text{ОБЩ}};$$

$$P_P = \mathcal{K}_P f_P; P_{\text{ПП}} = \mathcal{K}_{\text{ПП}} f_{\text{ПП}}$$

O'rin almashtirishdan so'ng ushbuga ega bo'lamiz:

$$\mathcal{K}_{\text{ОБЩ}} f_{\text{общ}}^2 = \mathcal{K}_P f_P^2 + \mathcal{K}_{\text{ПП}} f_{\text{пп}}^2$$

Parallel yuk tushganda $f_{\text{ОБЩ}} = f_P + f_{\text{ПП}}$, bunda $\mathcal{K}_{\text{ОБЩ}} = \mathcal{K}_P + \mathcal{K}_{\text{ПП}}$

Elementlarga parallel yuk tushganda ularning qattqligi jamlanadi.

Ushbu prinsipni bilish har qanday murakkab tizimning jamlanma qattqligini osonlik bilan aniqlash imkonini beradi.

Uch o'qli telejkaning balanslangan reszor osilishidagi umumiy qattqligi

$$\mathcal{K}_T = \frac{36\mathcal{K}_{\text{PY}} + \mathcal{K}_{\text{KV}}}{\mathcal{K}_{\text{PY}} + 4\mathcal{K}_{\text{KV}}}$$

Bunda, \mathcal{K}_{PY} – reszor tuguni reszorlari va prujinalar qattqligi kN/m;

\mathcal{K}_{KV} – oxirgi tugun prujinasining qattqligi kN/m.

Ressor tuguni qayishqoq elementlarining qattqligi

$$\mathcal{K}_{\text{PY}} = \frac{1}{\frac{1}{\mathcal{K}_P} + \frac{1}{2\mathcal{K}_{\text{PA}}} + \frac{1}{\mathcal{K}_{\text{ПП}}}}$$

Bunda, \mathcal{K}_P , \mathcal{K}_{PA} , $\mathcal{K}_{\text{ПП}}$ tegishli ravishda reszor, rezina amortizator va prujinaning qattqligi.

Oxirgi tugun qattiqligi

$$\mathcal{K}_{KV} = \frac{\mathcal{K}_{IP} \mathcal{K}_{PA}}{\mathcal{K}_{IP} + \mathcal{K}_{PA}}$$

G'ildiraklar gupchagi tortilishidagi qattiqlikni hisobga olgan holda individual reszor osilishining umumiy qattiqligi (6-rasmga qarang).

$$\mathcal{K}_T = 12 \frac{\mathcal{K}_{np} \mathcal{K}_{pa}}{\mathcal{K}_{np} + \mathcal{K}_{pa}} + \sum \mathcal{K}_{ng}$$

G'ildiraklar gupchagi tortilishidagi qattiqlik 0,15 kN/mm deb qabul qilingan.

Uch o'qli telejka g'ildiraklari gupchagi tortilishidagi qattiqlikning umumiy yig'indisi quyidagicha:

$$\sum \mathcal{K}_{IB} = 12 \mathcal{K}_{IB} = 12 \cdot 0,15 = 1,8 \text{ kH/mm.}$$

Misol,

Berilgan: $\mathcal{K}_{IP} = 0,332 \text{ kH/mm}$; $\mathcal{K}_{PA} = 2,436 \text{ kH/mm}$ -oxirgi tugun

Ech i m.

$$\mathcal{K}_{IP} = \frac{d^4 G}{8 n_p D^3} = \frac{35^4 \cdot 8 \cdot 10^4}{8 \cdot 6 \cdot 196^3} = 332 \text{ H/mm} = 0,332 \text{ kH/mm}$$

$$\mathcal{K}_{P.A.} = \frac{E_P F}{H} = \frac{2,14 \cdot 3,14 (220^2 - 70^2)}{30 \cdot 4} = 2435,9 \text{ H/mm} = 2,436 \text{ kH/mm}$$

Ressor tuguni

$$\mathcal{K}_{KV} = \frac{\mathcal{K}_{IP} \mathcal{K}_{PA}}{\mathcal{K}_{IP} + \mathcal{K}_{PA}} = \frac{0,332 \cdot 2,436}{0,332 + 2,436} = 0,29 \text{ kH/mm}$$

$$\mathcal{K}_P = \frac{E b h^3 (3n_k + 2n_c)}{6(L_k/2 - a/6)^3} = \frac{2,05 \cdot 10^5 \cdot 0,11 \cdot 0,016^3 (3 \cdot 2 + 2 \cdot 7)}{6(1,05/2 - 0,11/6)^3} = 2,37 \text{ kH/mm}$$

$$\mathcal{K}_{PV} = \frac{1}{\frac{1}{\mathcal{K}_P} + \frac{1}{2\mathcal{K}_{PA}} + \frac{1}{\mathcal{K}_{IP}}} = \frac{1}{\frac{1}{2,37} + \frac{1}{2 \cdot 2,436} + \frac{1}{0,332}} = 0,27 \text{ kH/mm}$$

$$\mathcal{K}_T = 12 \frac{\mathcal{K}_{np} \mathcal{K}_{pa}}{\mathcal{K}_{np} + \mathcal{K}_{pa}} + \sum \mathcal{K}_{ng} = 12 \frac{0,332 \cdot 2,436}{0,332 + 2,436} + 1,8 = 5,31 \text{ kH/mm}$$

G'ildirakka berilgan telejka osilgan reszorining qattiqligi

$$\mathcal{K}_K = \mathcal{K}_T / K = \text{ kH/mm.}$$

Ressor osmasining statik egilishi f_{CT} egilish elementlarining statik yuklama ostida joylashishini ko'rsatadi.

$$\text{Agar } \mathcal{K}_T = P_{CT} / f_{CT}, \text{ dan } f_{CT} = P_{CT} / \mathcal{K}_T$$

Aravachadagi static yuklama taxminan topshiriqda berilgan o'qqa tushadigan yuklamaga qarab aniqlanadi.

$$P_{CT} = 2Q \text{ K,}$$

Bunda K - aravachadagi o'qlar soni

2Q – bitta o'qqa tushadigan og'irlik, kN.

$$f_{CT} = \text{ mm}$$

3.3. Teplovoz harakatining kritik tezligi va reszorlar tagidagi qismlarning tebranish chastotasini aniqlash

Yo'lda uchraydigan tasodifiy notekisliklar ta'sirida reszor ostidagi asosiy qismlarning tebranishi va tizimning qattiqligi hamda reszor ostidagi qismlarning hajmi bilan bog'liq bo'lgan tebranishlar tizimning erkin tebranishlari deb ataladi. Ular ma'lum vaqt birligi davomida to'liq tebranishlar sonini ko'rsatadi.

$$H_C = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{\mathcal{K}_T}{m_T}}$$

Bunda, m_T – og'irligi telejkaga tushadigan reszor ostidagi asosiy qismlar.

Agar, $\mathcal{K}_T = P_{CT}/f_{CT}$: $m_T = P_{st}/g$ deb qabul qilinsa, tebranishlar chastotasini aniqlash uchun sodda tenglamaga ega bo'lamiz:

$$v_{KP} = \frac{\omega_c}{2\pi} \cdot L = \frac{L}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{f_{CT}}}$$

Ushbu tenglamada statik egilish kattaligi santimetrlarda berilgan.

Doirali va liniyalı tebranishlar chastotalari o'rtasida tenglik mavjud

$$\omega_c = 2\pi H_C, c^{-1}$$

Tizimdagi tebranishlar deyarli doimiy bo'lgan chastotada amalga oshadi. Zamonaviy teplovozlar uchun tebranishlar chastotasi quyidagicha bo'ladi.

$$H_C = 1,8 \div 2,2 \text{ Gr}$$

$$\omega_c = 2 \cdot 3,14 \cdot 0,99 = 6,22 \text{ c}^{-1}.$$

Ressorlar osilishi unga yo'l tomonidan periodik salbiy etuvchi murakkab majburiy tebranish tizimi demakdir.

Majburiy tebranishlar chastotasi:

$$\omega_B = 2\pi v/L,$$

v – teplovozning harakat tezligi, m/s

L – relslar tizimining uzunligi, m

Rezonans holati o'zining tebranishi hamda tashqi ta'sir natijasidagi tebranishlar tenglashganda kuzatilishi mumkin. Hatto g'ildiraklarning relsdan chiqib ketishiga olib keluvchi bunday xavfli tezlik kritik tezlik deb ataladi. U quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$\omega_c = \omega_B; \frac{2\pi v_{KP}}{L} = \sqrt{\frac{\mathcal{K}_T}{m_T}}$$

Bunda,

$$v_{KP} = \frac{\omega_c}{2\pi} \cdot L = \frac{L}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{f_{CT}}}$$

Olingan kritik tezlik berilgan konstruksion tezlik bilan qiyoslanadi. Rezonans holatining va u bilan bog'liq boshqa ko'ngilsiz holatlarning oldini olish uchun kritik harakat tezligi konstruksion tezlikdan yuqori bo'lishi lozim.

Kritik tezlikning hisob-kitobi relslar tizimining ikki qiymati uchun amalga oshirish lozim: $L_1 = 12,5_m$; $L_2 = 25_m$;

$$L_1 = 12,5M \quad v_{KP} = \frac{\omega_c}{2\pi} \cdot L = \frac{L}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{f_{CT}}}$$

$$L_2 = 25\text{M} \quad v_{KP} = \frac{\omega_c}{2\pi} \cdot L = \frac{L}{2\pi} \cdot \sqrt{\frac{g}{f_{CT}}}$$

3.4. Tebranishlar amortizatsiyasini aniqlash

Teplovozlar reszor o'rnatilgan joyning amortizatsiyasi (tebranishlarning so'nishi) quruq ishqalanish (friksiya) larni so'ndiruvchi list taxlamlari yordamida amalga oshadi. Alohida hollarda gidravlik so'ndiruvchilaridan foydalaniladi. Biroq u g'ildirak gupchagi pog'onasida uriluvchi yuk ta'siri sababli yaxshi ishlamaydi. SHuning uchun suv yordamida so'ndirish usuli (gidrogasitel) reszorlar o'rnatilgan joyning ikkinchi pog'onasida ishlatiladi (M62). Bunda u uriluvchi ta'sirdan reszor o'rnatilgan joy gupchakli pog'onaning qayishqoqligi sababli himoyalangan.

Tajriba uchun siqilgan havodan foydalaniladigan pnevmatik so'ndiruvchi ishlatiladi. Bunday so'ndiruvchilar reszorlar osilgan joyning har ikkala pog'onasida ham ishonchli ishlaydi.

Tizimga bo'lgan amortizatsiya (tebranishlarning so'nishi) ta'siri amortizatorlar va o'rnatilgan ishqalanishi natijasida amalga oshadi.

Dempferlar yordamida kelib chiqadigan ishqalanish ishi reszor o'rnatilgan joy qayishqoqlik kuchidan kelib chiqadigan ishning 3-6%ini tashkil qilsa reszor osilgan joyning dempfirlanishi qoniqarli hisoblanadi. Ushbu kattalik nisbiy ishqalanish koeffitsienti deb ataladi.

Arava qayishqoqlik kuchining ishi

$$A_y = 4f_{CT} \mathcal{K}_T Z_1.$$

Bunda f_{CT} - reszor osilishining statik egilishi.

\mathcal{K}_T - arava osmasining qattiqligi, kN/m

Z_1 - tebranishlar (dinamik egilish) paytida arava ramasining burilish kattaligi.

Hisob-kitoblar paytida dinamik egilishlar kattaligiga etibor berish lozim.

$Z_1 = 15 \div 25 \text{mm}$.

Arava osilishidagi friksion so'ndirgichlar hosil qiladigan ishqalanish kuchi,

$$W_\phi = 4F_{TP} Z_1 n$$

F_{TP} - bitta so'ndirgich ishqalanish kuchining ishi; $F_{TP} = 5 \div 6 \text{kN}$ deb qabul qilish tavsiya etiladi;

n - so'ndirgichlar soni; ($n=6$);

ϕ_T - nisbiy ishqalanish koeffitsienti

$$\phi_T = \frac{W_\phi}{A_y} = \frac{F_{TP} n}{f_{CT} \mathcal{K}_T} \geq 0,03 \div 0,06.$$

Zarur hollarda friksion dempfer hosil qiladigan ishqalanish kuchini oshirish zarur bo'ladi.

Arava gidroso'ndirgich qayishqoq ishqalanish kuchining ishi

$$W_1 = \pi C_T \omega_c Z_1^2;$$

Bunda, C_T - arava so'ndirgichlari qarshiligining yig'ma koeffitsienti, kN/mm.

$$C_T = \lambda C_{KP}$$

Bu erda, λ – nisbiy dempirlanish koeffitsienti (VNIIT tavsiyasiga ko‘ra $\lambda=0,28\div 0,3$);

C_{kr} – tebranishlar yo‘q paytidagi qarshilikning kritik koeffitsienti.

$$C_{kr} = \sqrt[2]{\mathcal{K}_T m_T}$$

Bunda, \mathcal{K}_T – arava osmasining qattiqligi, kN/mm;

m_T – reszor osti yukining og‘irligi, kN·s²/mm.

Arava ressori osilishining reszor taxlamlari bilan nisbiy ishqalanish koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\phi_T = \frac{\phi_P n \alpha^2}{\mathcal{K}_P} \mathcal{K}_T$$

Bunda, ϕ_P – reszor taxlamlarining nisbiy ishqalanish koeffitsienti;

n – aravadagi ressora listlarining soni;

α – har bir ressorga og‘irlikning bir bo‘lagi.

Uch o‘qli aravaning balanslangan osilishida reszor taxlamiga tushadigan og‘irlikning bir qismi. $\alpha=1/6$.

Aravada taxminan to‘rt reszor taxlami mavjud: $n=6$.

Ressorning nisbiy ishqalanish koeffitsienti

$$\phi_\delta = 2\mu(n_0 - 1) \frac{h}{l}$$

μ – reszor taxlamlari orasidagi ishqalanish koeffitsienti; etarli darajada moylanganda moylanmagan sharoit uchun 0,4ga teng deb qabul qilinadi.

h – har bir taxlamning qalinligi;

l – reszor uzunligi;

n_0 – ressordagi taxlamlar soni.

Ressor taxlamlarining o‘lchamlari yuqorida keltirildi.

Maxsus arava qo‘llanilganda (manyovrli teplovoda) dempirlanish jarayoni reszor taxlamlari tomonidan amalga oshiriladi. Yuk teplovozlarida friksion so‘ndirgichlar qo‘llanilgan. Passajir teplovozlarda gidravlik dempirlanishga hisob-kitob qilish lozim.

3. Lokomotivning egri chiziq bo‘ylab haakatlanishi

Lokomotivning yo‘lining egri qismida harakatlanishining o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu bo‘limda lokomotivning yo‘lining egri qismida harakatlanishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda bunday harakatlanishni ta‘minlash bo‘yicha olib borilgan tadbirlar, geometrik moslikni bajarish zarurati yoritilishi lozim.

Geometrik moslikning mavjud usullari yoritilib, ushbu usullarning qiyosiy tahlili olib boriladi. Aylanma diagramma usuli yordamida geometrik moslikni bajarish tartibi yoritiladi. Grafik tasvirlar va zarur hisob-kitoblardan avval talaba zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni 4-jadval asosida bajaradi. Barcha hisob-kitoblarga tushuntirishlar berib boriladi.


Hisob kitoblar uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanilganda foydalanilgan adabiyot ko‘rsatiladi. Aylanma diagramma millimetr qog‘ozda bajariladi va tushuntirish xatining oxiriga, ilova tarzida qistirib qo‘yiladi.

Formula va shartli belgilar tarkibiga kiritilgan kattaliklarning kengaytma qilinishi shart.

Bitta g'ildirak juftligining yo'ning egri qismida harakatlanishida (6.a rasm) tashqi relsdan o'tishi kerak bo'lgan g'ildirakning oralig'i ($L_H = \varphi/R_H$), ichki relsdan o'tishi lozim bo'lgan g'ildirakning oralig'idan ($L_B = \varphi/R_B$) katta. Ushbu oraliqdagi farq yo'l o'qi bo'ylab o'lchanadigan egri chiziq uzunligiga ($L = \varphi/R_0$) bog'liq. Bundan $\Delta l = \varphi(R_H - R_B) = \varphi/l_k$ kelib chiqadi. Bunda l_k – tirsakning (burilish joyining) kengligi. G'ildiraklar juftligidagi g'ildirakning qattiq bog'lanishida yuzaga keladigan ushbu farq, g'ildiraklar aylanadigan qiya yuzada i g'ildirakning har xil radiusda aylanishi hisobiga to'ladi (6.b rasm).

G'ildiraklar juftliginig relsdagi o'rtacha holatidan c masofaga surilganda tashqi va ichki relslar bo'ylab o'tgan g'ildiraklar orasidagi farq $\Delta 2 = 2\pi(r_H - r_B)N$, bunda $N = \varphi R_0 / (2\pi r_0)$ – yo'lda g'ildirakning aylanishi L_0 ; $r_H - r_B = 2ic$. Shunda $\Delta l = \Delta 2$ tenglama asosida $l_k = 2ic \cdot R_0 / r_0$ ni topamiz, undan esa g'ildirakning sezilmasdan o'tishi mumkin bo'lgan egri chiziq radiusini topamiz $R_0 = r_0 l_k / (2ic)$. $i = 1:20$ bo'lganda va maksimal surilish $c = 7\text{mm}$ bo'lganda (yon tomon bandajlari uchun) $R_0 = 2000\text{m}$.

Kichik radiusli egri chiziqlarda sirpanib ketish muqarrar bo'ladi. Bu erda, avvalgilari kabi g'ildiraklar juftligining harakatlanishi uning ko'ndalang siljishidagi va burilish burchagidagi cheklovlarsiz ko'rib chiqildi. Lokomotivning ekipaj qismida siljishlar va g'ildirak juftliklarinnng burilishi cheklangan.




6-rasm. Bitta g'ildirak juftligini yo'ning egri qismida harakatlanishi.

Lokomotivning yo'ning egri qismida harakatlanishini ta'minlash uchun yo'lni qurish paytida ham, lokomotiv ekipaj qismini loyihalash paytida ham maxsus choralar ko'riladi. Egri yo'lda relslarning ichki tirsagida bandaj o'rkachining (qirrasining) tishlashib qolishi kuzatilishi mumkin. Buning oldini olish uchun yo'ning kichik radiusli qismida tirsaklar kengaytiriladi.

Egri yo'llarda tirsakni kengaytirish temir yo'llarda Texnik ekspluatatsiya qoidalariga (PTE) asosan amalga oshiriladi ($R < 350\text{m}$. bo'lganda 10mm.ga, $R < 300\text{m}$. bo'lganda 15mm.ga). Bunda egrilik $R < 300\text{m}$ bo'lganda bandaj rels boshini 12mm.ga yKMadi.

Agar relslar yo‘l o‘qiga nisbatan perpendikulyar ravishda siqilishini va g‘ildiraklar juftligining relslar boshidagi yuzada bandajlarning yaqinlashishiga olib keluvchi egilishini hisobga olsak shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, burilish joyi haddan tashqari kengayib ketganda, qiyaligi 1:20 bo‘lgan bandaj harakatlanayotgan yuzaning qiyaligi 1:7 bo‘lgan yuza bilan kesishganda rels boshi 13 mm radiusli yonlama haraktga o‘tishi kuzatiladi. Bu xavfli, chunki buning natijasida relslar tashqi tomonga qarab siqilishi va tirsak ichidagi bandajning chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. (7-rasmga qarang).



7-rasm. Relsga g‘ildirak juftligining o‘rnatilishi.


Lokomotiv ekipajini egri chiziqqa kiritishni osonlashtiruvchi tadbirlarga quyidagilar kiradi: g‘ildiraklar juftligining ko‘ndalang urilishini hisobga olish (ekipajning ramaga ko‘ndalang bo‘lgan o‘qining siljishi); qirralari ingichkalashtirilgan (yoki qirrasiz) bandajlardan foydalanish va buriladigan aravali lokomotivlardan foydalanish.

Geometrik usullarni kiritish

Egir chiziq bo‘ylab lokomotivning harakatlanishini osonlashtiruvchi tadbirlarning samarasini baholash uchun geometrik kiritish usulidan foydalaniladi. Relsning egri yo‘lda kengayishi bo‘lmaganda g‘ildirak qirralari va rels boshining ichki chegarasi oralig‘idagi farqlar yig‘indisi har ikkala rels uchun 14 mm.ni tashkil qiladi. SHuning uchun Topshiriqni bajarish uchun odatdagidek masshtabni kichraytirib olishning iloji yo‘q. Masalan, masshtab 100 marta kichraytirilganda bu oraliq o‘lchami chizilayotgan chiziqdan ham kichik bo‘ladi. Grafik kiritish usulini qo‘llash uchun maxsus usullardan foydalaniladi.

Ulardan biri – aylana diagramma tuzishdir, uni tuzish lokomotiv asosi va egri chiziq radiusi uchun har xil, ammo bir-biri bilan bog‘langan masshtablar foydalaniladi. 8a-rasmda egri chiziq radiusi R , asosi $2X$ bo‘lgan uch o‘qli teplovoz aravasi tasvirlangan. OMN tuzg‘ri burchakli uchburchakni ko‘rib chiqamiz. Bunda $ON=R$, $NM=X$, $OM=R-Y$. Pifagor tenglamasidan foydalangan holda o‘rta g‘ildirak juftligi o‘rkachi va tashqi rels oralig‘i Y uchun quyidagi tenglikni yozish mumkin: $Y=X^2(2R-Y)$. Agar Y ning qiymati $2R$ ga nisbatan juda kichik ekanligini

hisobga olsak, tenglamani soddalashtirish mumkin: $Y = X^2 / (2R)$. Chizish paytida arava asosi n marta kamaysa, egri chiziq radiusi n^2 marta kamayadi, ya'ni $x = X/n$ va $r = R/n^2$. SHunda diagrammada o'rkach bilan rels oralig'i $y = x^2 / (2r) = X^2 n^2 / (2R n^2) = X^2 / (2R) = Y$, ya'ni bu oralig' (barcha ko'ndalang o'qchamlar kabi) asil kattalikda tasvirlanadi.



8-rasm. Ekipajning egri chiziqqa kiritilishining doiraviy diagrammasi:
a) o'ch o'qli aravaning kiritilishi; b) soddalashtirilgan diagramma

Chizmani soddalashtirish uchun unda relsning A va B boshlarining ichki qirralari aks ettiriladi. Bunda ular oralig'idagi farq yo'lining to'g'ri qismidagi Δ va yo'ning egri qismidagi δ kengayishidan tashkil topgan oraliqdan iborat bo'lgan bandaj qirralari bilan rels ustining umumiy oralig'igi teng deb qabul qilinadi (8b - rasm). SHu bilan birga lokomotiv ekipaji sxematik ravishda, o'rkachlar tashqi chegaralari qo'shilgan tekisliklarning gorizontali izini tashkil qiluvchi bitta liniya SS shaklida tasvirlanadi. SS liniyasidagi nuqtalar g'ildiraklar juftligidagi o'qlarni anglatadi. Ushbu nuqtalardan A yoki V egrilikka bo'lgan SS liniyaga tikzilgan perpendikulyar bo'ylab o'lchangan masofa o'rkachlar va rels ustlarining ichki qirralari o'rtasidagi masofani tashkil qiladi. Agar nuqta A yoki V egri chiziqda joylashgan bo'lsa, bu g'ildiraklar juftligining tegishli g'ildirak o'rkachi bilan tashqi yoki ichki relsga siqilib qolganligini anglatadi. Agar g'ildiraklar juftligini ifodalovchi nuqta egri chiziqdan tashqarida bo'lsa, unda ushbu g'ildirak juftligi arava ramasiga nisbatan yonlama siljishi, yoki bandaj o'rkachlari toraytirilishi lozim. Aks holda egri chiziq bo'ylab harakatlanishning imkoni bo'lmaydi.

Doirasimon diagramma ekipajning egri chiziqda joylashishi to'g'risida aniq tasavvur beradi, biroq ekipajning asosi katta bo'lganda ko'ndalang siljish yoki aravaning asosiy ramadan chetlashishi ba'zi xatolar bilan tasvirlanadi.

Aniqroq qiymatlar parabolik parabolik diagramma usulini kiritishda olinadi. Agar ko'ndalang va uzunasiga ketuvchi yo'nalishlar uchun bir-biriga bog'liq bo'lmagan har xil masshtablar tanlab olinsa rels tirsagining aylanma aylanma egri chizig'i ellips shaklini oladi. U esa o'z navbatida lokomotiv o'rnatiladigan joy (ellipsning uchida) katta aniqlik bilan parabolaga aylanishi mumkin. O'rnatishning ushbu usuli parabolik deb ataladi.

O'rnatish tartibi.

1. $m_x = 1:n$ masshtabda lokomotiv asosi chizib olinadi, bunda $n = 25 \div 50$ deb olinadi.

2. rels yo‘lining ordinatasi aniqlanadi. Tashqi relsning ordinatasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:


$$y = \frac{m_y}{2Rm_x^2} x^2,$$

Bunda, x – lokomotiv asosining odatdagi absissalari (chizmadagi);

R – egri chiziqning berilgan radiusi;

m_y – vertikal bo‘yicha masshtab. Odatda 1:1 yoki 2:2 ga teng deb qabul qilinadi.

Parabolani yanada aniq tuzish uchun x ning kattaroq qiymatini olish lozim. Hisoblangan qiymatlar bo‘yicha tashqi relslarni aks ettiruvchi u parabola tuziladi. (9-rasm.).



9-rasm. teplovozni parabolik usul bilan egri chiziqqa o‘rnatish.

Agar tashqi rels parabolasini o‘z o‘qi bo‘ylab parallel ravishda o‘ziga u kattalikka surilganda, ichki rels rasviri olinadi.

$$y' = (\sigma + \Delta) m,$$

bunda, Δ - yo‘lining to‘g‘ri qismida bandaj o‘rkachi va rels oralig‘idagi yig‘indi oraliq;

σ – egri chiziqda rels tirsagining kengayishi.

Kuzovning bo‘ylama o‘qi OX o‘qqa parallel bo‘lganda ekipaj sxemasi m masshtabda joylashadi.

m_x bo‘lganda har qanday vertikal yo‘nalishdagi o‘q m_y tabiiy kattalikka ega bo‘ladi.

Parabolik usulda barcha oraliq va chetlanishlar faqat vertikal yo‘nalishda o‘lchanadi. Burchaklar buzilgan holda ko‘rinadi va quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\alpha_H = \frac{m_x}{m_y} \alpha_{\text{qepm}}$$

Doirasimon diagramma usuli yordamida geometrik o'rnatishda ekipajning quyidagi vaziyatlari o'rganiladi (10-rasm):

- tashqi relsga otib yuborilgandagi vaziyat;
- qiyshaygan vaziyat;
- ichki relslarga otib yuborilganda.

Barcha o'rganilgan vaziyatlarda quyidagilar aniqlanadi:

- g'ildiraklar juftligining talab etiladigan boshlang'ich tezligi f ;
- bandaj o'rkachi va rels oralig'idagi farqning kattaligi h ;
- g'ildiraklar juftligining harakatlanish burchagi α ;
- kuzov va arava o'qlari orasidagi burchak β .

Boshlang'ich tezlik va oraliq kattaligi arava yoki lokomotiv asosiga vertikal yo'nalishda o'lchanishi lozim (f va h).

Burchak kattaliklari chizmada o'lchash olib borish va buzilishlar koeffitsientiga bo'lish yordamida aniqlanadi (α va β).

Doirasimon diagramma usuli

Hisob-kitob va tuzilishlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Topshiriq asosida (4-jadval) diagramma tuzish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar

Egri chiziq radiusi R_K , m 125

2TE10M tipidagi teplovoz seriyasi

O'q xarakteristikasi 3_0-3_0

Tirsak kengligi δ , mm – 14


Bandaj o'rkachi va rels bosh qismi o'rtasidagi summar oraliq $\Delta=14$ mm,

Burilish koeffitsienti $n=12$

Masshtab m 1:2


Doirasimon diagramma tuzish va hisob kitob qilish

(6) ga asoslanib berilgan teplovoz ekipaj qismining eskizini tuzamiz (11 rasm).



10-rasm. doirasimon diagramma usuli yordamida teplovozni egri chiziq ichiga chizish.

- a – ekipajning eng ko‘p egilgan paytdagi holati;
- b – ekipajning chetki relsga siltangan paytidagi holati;
- v – ekipajning ichki relsga siltangan paytdagi holati;
- α – bandajning rels bosh qismiga urilish burchagi;
- β – aravaning lokomotiv ramasiga nisbatan burilish burchagi;
- h – rels bosh qismi va bandaj o‘rkachi o‘rtasidagi oraliq;
- f – o‘rta g‘ildirak juftligi o‘qining o‘q bo‘ylab talab qilinadigan tezlanishi



11-rasm. namunadagi teplovoz ekipaj qismining sxemasi.

- Shkvorenlar o‘rtasidagi oraliq (6) $B=9630\text{mm}$;
- 1 va 2 g‘ildirak juftliklari o‘rtasidagi oraliq (6) $X_1=1850\text{mm}$;
- 2 va 3 g‘ildirak juftliklari o‘rtasidagi oraliq (6) $X_2=1850\text{mm}$;
- O‘rta g‘ildirak juftligi va shkvorenlar o‘rtasidagi oraliq (6) $L_1=L_2=185\text{mm}$;

TUZISH TARTIBI

Umumiy masshtab m ni hisobga olgan holga yo‘li o‘qining radiusini chizamiz r_{sr} (1 ilovani qarang)

$$r_{cp} = (R/n^2) m = \text{mm.}$$

Ichki va tashqi relslar r_i va r_{vn} ni aks ettiruvchi egriliklar (1 ilovaga qarang);

$$r_{in} = r_{cp} + ((\Delta/2) m) = \text{mm};$$

$$r_{on} = r_{cp} - (\delta + (\Delta/2)) m = \text{mm},$$

Bunda, δ – tirsakning kengayishi;

$\Delta/2$ – summar oraliqning yarmi.

b) arava bazasi egri chizig‘ini asl ko‘rinishidan n marta kichraytirilgan, eng ko‘p qiyshaygan holatida liniya tarzida chizmagam kiritamiz. Bu liniyada g‘ildiralar

juftligi nuqta tarzida aks ettiriladi. Bunda birinchi va uchinchi g'ildiraklar juftliklarini aks ettiruvchi nuqtalar oralig'ini quyidagiga teng bo'ladi (I va III nuqtalar):

$$x_{1-3} = ((X_1 + X_2)/n)m$$

Birinchi va ikkinchi g'ildiraklar juftliklari oralig'i quyidagiga teng bo'ladi: (I va II nuqtalar):

$$x_1 = (X_1/n)m$$

Ikkinchi va uchinchi g'ildiraklar o'rtasidagi farq (II va III nuqtalar):

$$x_2 = (X_2/n)m =$$

Shkvorenlar holati (u_1 nuqtasi):

$$u_1 = (L_1/n)m = \quad \text{mm.}$$

O markazdan sh_1 nuqtasiga radiusi r_u bo'lgan yoy o'tkazamiz.

r_u yoyda u_1 nuqtadan radiusi shkvorenlar o'rtasidagi oraliqqa teng bo'lgan kematik hosil qilamiz.:

$$e = (B/n)m = \quad \text{mm.}$$

Ikkinchi arava o'rta g'ildiraklar juftligining holatini aniqlaymiz (V nuqtasi)

$$u_2 = (L_2/n)m = (185/10)0,5 = \quad \text{mm}$$

ushbu nuqta orqali arava asosining uzunligiga mos keluvchi chiziq o'tkazamiz.

Bajarilgan tenglamalar asosida quyidagilarni aniqlaymiz:

Eng ko'p qiyshashish holati uchun (1 ilova):

a) o'rta g'ildiraklar juftligi o'qining tezlanishiga bo'lgan talab f o'qlar chalkashishi talab qilinmaydi, chunki o'rta o'qlar juftligini belgilaydigan nuqta ichki va tashqi relslar yoyida yotadi.

b) bandaj o'rkachi va rels o'rtasidagi oraliqning kattaligi h

Bajarilgan tenglamalar asosida quyidagilarni aniqlaymiz:

$h1-1chert=3mm$, qabul qilingan umumiy masshtabni hisobga olgan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $h1-1=3/(0,5)=6mm$;

$h1-3chert=3mm$ qabul qilingan umumiy masshtabni hisobga olgan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $h1-3=3/(0,5)=6mm$;

$h2-1chert=4mm$, qabul qilingan umumiy masshtabni hisobga olgan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $h1-1=3/(m)=6mm$;

$h2-3chert=3mm$; qabul qilingan umumiy masshtabni hisobga olgan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $h1-1=4/(m)=8mm$;

v) g'ildiraklar juftligining urilishi burchagi α

Bajarilgan tenglamalar asosida quyidagilarni aniqlaymiz:

Birinchi arava uchun $\alpha1chert=120$, buzilishlar koeffitsientidan foydalangan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $\alpha1=(\alpha1chert)/n=120/10=1,20$;

Ikkinchi arava uchun $\alpha2chert=100$ buzilishlar koeffitsientidan foydalangan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $\alpha1=(\alpha1chert)/n=100/10=10$;

g) kuzov va arava o'qi o'rtasidagi burchaklar β


Bajarilgan tenglamalar asosida quyidagilarni aniqlaymiz:

Birinchi arava uchun $\beta1chert=120$, buzilishlar koeffitsientidan foydalangan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $\beta1=(\beta1chert)/n=80/10=0,80$;

Ikkinchi arava uchun $\beta_{2chert}=90$, buzilishlar koeffitsientidan foydalangan holda, haqiqiy kattalikni aniqlaymiz $\beta_1=(\beta_{1chert})/n=90/10=0,90$;

Tashqi relsga o'tilib ketish holati uchun:

a) o'rta g'ildiraklar juftligi o'qining tezlanishiga bo'lgan talab f o'qlar chalkashishi talab qilinmaydi, chunki o'rta o'qlar juftligini belgilaydigan nuqta ichki va tashqi relslar yoyida yotadi.



Локомотивы железных дорог стран СНГ

Схемы экипажной части




Схема экипажной части тепловоза М62




Схема экипажной части тепловоза ТГМ4




Схема экипажной части тепловоза ТГМ 6




Схема экипажной части тепловоза ТЭ10В




Схема экипажной части тепловоза ТЭ10Л




Схема экипажной части тепловоза ТЭ116




Схема экипажной части тепловоза ТЭМ 2




Схема экипажной части тепловоза ТЭП 60




Схема экипажной части тепловоза ТЭП 70




Схема экипажной части тепловоза ЧМЭ 3

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И в а н о в В.Н. и др. Конструкция и динамика тепловозов. – М.:Транспорт,1974.
2. П а н о в Н.И. и др. Тепловозы. – М.: Машиностроение, 1976.
3. К а м а е в и др.Конструкция, расчет и проектирование локомотивов. – М.: Машиностроение,1981 г.
4. Фуфрянский Н.А. и др.Развитие локомотивной тяги. -М.: Транспорт,1982.
5. Г о л у б я т н и к о в С.М. и др. Тепловозы СССР. Отраслевой каталог.-М.: НИИ Информтяжмаш,1983.
6. Л ь в о в Д.В. и др. Тепловозы СССР. К.- М.: Транспорт,1983 каталог. - М.: НИИ Информтяжмаш,1966.
7. С и т н и к о в Е.А. и др.Совершенствование тепловозных холодильников. -М.: НИИ Информтяжмаш,1966.
8. К о н о н о в В.Е., С к а л и н А.В. Справочник машиниста тепловоза. -М.: Транспорт, 1993
- 9.С и н е н к о Н.П., З а с л а в с к и й Е.Г. Тепловоз ТЭ 3.-М.: Транспорт, 1986.
10. С д о б н и к о в Е.Ф. и др. Тепловоз ТЭМ 2.-М.: Транспорт,1983.
11. Ф и л о н о в С.П. и др. Тепловоз 2ТЭ10В.- М.: Транспорт,1975.
12. Ф и л о н о в С.П. и др.Тепловоз 2ТЭ10М и 3ТЭ10М. Устройство и работа.- М.: Транспорт,1986.
13. С т е п а н о в В.Р. и др. Тепловоз 2ТЭ10Л.- М.: Транспорт,1974.
14. Ф и л о н о в С.П. и др. Тепловоз 2ТЭ116 .- М.: Транспорт,1985.
15. Ф и л о н о в С.П. и др. Тепловоз 2М62.- М.: Транспорт,1983.
16. Ф и л о н о в С.П. и др. Тепловозы типа ТЭ10М. Руководство по эксплуатации и обслуживанию.- М.: Транспорт,1985.
- 17.Ж и л и н Г.А. и др.Пассажирский тепловоз ТЭП 60.- М.: Транспорт,1976.
18. Х л е б н и к о в Ю.В. и др. пассажирский тепловоз ТЭП 70.- М.: Транспорт,1976.
19. Н а з а р о в Л.С. и др. Маневровые тепловозы.- М.: Транспорт,1977.
20. К у з ь м и ч В.Д. и др. Тепловозы. Основы теории и конструкция.- М.: Транспорт,1982.
21. Пойда А.А. и др. Тепловозы.- М.: Транспорт,1986.